ISSN 2181-9556

Doi Journal 10.26739/2181-9556

# ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

# ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

# JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

SPECIAL ISSUE-1

ТОШКЕНТ-2024

# ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№ SI-1 (2024) DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-SI-1



**Бош муҳаррир:**
**Главный редактор:**
**Chief Editor:**
**Сеитов Азамат Пулатович**
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**
**Заместитель главного редактора:**
**Deputy Chief Editor:**
**Сабирова Умида Фархадовна**
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

### 22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
### Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
### Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Бекмурадов Мансур Бобомурадович**
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
**Каланов Комил Куллахматович**
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
**Убайдуллаева Раиса Турсуновна**
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
**Негматова Шахзода Шухратовна**
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
**Исмаилов Алишер Агзамович**
доктор экономических наук, (Узбекистан)

**Щепилова Галина Германовна**
доктор философских наук, профессор (Россия)
**Рожанский Михаил Яковлевич**
кандидат философских наук (Россия)
**Маматов Нормурат**
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
**Камалова Хатира Сабыровна**
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
**Ғофуров Низомжон Октябрович**
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)

### 22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
### Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
### Social structures, social institutions and way of life

**Умаров Абсалом Адилович**
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
**Холбеков Абдуғани Жуманазарович**
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
**Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович**
доктор социологических наук, профессор (Россия)
**Акулич Мария Михайловна**
доктор социологических наук, профессор (Россия)
**Каримов Бобир Шаропович**
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
**Сабиров Алишер Сабирович**
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
**Ахмедова Феруза Медетовна**
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

**Антонио Алонсо Марсос**
доктор политических наук, профессор (Испания)
**Фадеева Любовь Александровна**
доктор социологических наук, профессор (Россия)
**Виктор Агаджаньян**
доктор философии по социологическим наукам (США)
**Тагиева Гулсум Гафуровна**
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
**Муйдинова Моҳира Мукумжоновна**
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
**Ходжаев Собир Джумаевич**
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)
**Алимухамедова Нодира Ядгаровна**
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

### 22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
### Социология социального сознания и социального процесса.
### Sociology of social consciousness and social process

**Аликариев Нуритдин Сапаркариевич**
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
**Матибаев Тасполат Балтабаевич**
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
**Николов Стефан**
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)
**Бурнашев Рустам Ренатович**
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)
**Пармонов Фарход Ярашевич**
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
**Акрамов Хусан Фуркатович**
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

**Ли Ци**
доктор исторических наук, профессор (Китай)
**Сухомлинова Марина Валерьяновна**
доктор социологических наук, профессор (Россия)
**Қаюмов Қахрамон Нозимжонович**
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)
**Доспанова Дилара Уракбаевна**
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)
**Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна**
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)
**Якубов Ильдар Харасович**
кандидат политических наук, и.о.доцент (Узбекистан)

**Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи:** Хуршид Мирзахмедов



**Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz**
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz**
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

# МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

**1. Сеитов Азамат**
РАЗВИТИЕ СОЦИОЛОГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ: ОТ ПРОШЛОГО
К ПЕРСПЕКТИВНОМУ БУДУЩЕМУ........................................................................................5

**2. Sabirova Umida**
SOTSIOLOGIK MONITORING YARATISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.............12

**3. Алексеева Виктория**
КОНЦЕПЦИИ ГЕНДЕРНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В АНАЛИЗЕ ДИНАМИКИ
СОЦИАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ.....................................................................................21

**4. Kayumov Kaxramon**
KICHIK SHAHARLARNI ILMIY O'RGANISHNING SOTSIOLOGIK JIHATLARI.................30

**5. Alikariyeva A'loxon**
TA'LIM SIFATI БОШҚАРУВИГА NAZARIY YONDASHUVLAR TAHLILI..........................36

**6. Mannanova Nilufar**
DAVLAT XIZMATCHILARINI MERITOKRATIK YONDOSHUV ASOSIDA
TANLASH – JAMIYATDA ADOLAT TAMOYILI QAROR TOPISHINING MUHIM
MASALASI SIFATIDA.........................................................................................................44

**7. Mo'minov Zokirjon**
IJTIMOIY MOBILLIK OMILINI TADQIQ ETISHNING METODOLOGIK JIHATLARI...........51

**8. Jiyanmuratova Gulnoz**
YOSHLARNING SIYOSIY INSTITUTLARGA NISBATAN ISHONCHI MUAMMOSI:
NAZARIY ASOSLAR...........................................................................................................58

**9. Сеитов Мансур**
МОЛОДЕЖНАЯ ПОЛИТИКА В ФОРМИРОВАНИИ ЖИЗНЕННЫХ ПОЗИЦИЙ
МОЛОДЕЖИ: ОТЕЧЕСТВЕННЫЙ ОПЫТ.........................................................................66

**10. Узакова Зарина**
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ:
ОТ СОЦИАЛЬНОЙ К БИОПСИХОСОЦИАЛЬНОЙ МОДЕЛИ ИНВАЛИДНОСТИ.............74

**11. Ziyayeva Xolida**
AGRESSIV XULQ-ATVORNI O'RGANISHGA QARATILGAN NAZARIYALAR
TAHLILI..................................................................................................................................80

**12. Imomova Nozimaxon**
MEHNAT MIGRATSIYASINI VUJUDGA KELISHI VA
TRANSFORMATSIYALASHUVINING IJTIMOIY OMILLARI...............................................88

**13. Shokirov Shaxrizod**
HUQUQBUZARLIK VA JINOYATCHILIKNI OLDINI OLISHDA
JAMOATCHILIK BILAN HAMKORLIKDA ISHLASH..........................................................93

**14. Ixtiyarov Farxod**
INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH – IJTIMOIY BARQARORLIK
VA TARAQQIYOT OMILI..........................................................................................................102

**15. Akramov Xasan**
YANGI O‘ZBEKISTONNING SPORT STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISHDA
NORMATIV-HUQUQIY BAZASINING SOTSIOLOGIK TAHLILI..........................................108

**16. Kalanova Sabohat**
JAMIYATDA AVLODLAR ALMASHINUVI JARAYONLARI IJTIMOIY HODISA
SIFATIDA.....................................................................................................................................117

**17. Axrorov Zohidjon**
O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY HODIM KASBINING JORIY ETILISHI, IJTIMOIY
SIYOSATNING AMALIY NATIJASI SIFATIDA.......................................................................126

**18. Xujanov Zafar**
KAMBAG‘ALLIK SABABLARI VA UNI QISQARTISHGA TA’SIR
ETUVCHI OMILLARI.................................................................................................................132

**19. Turanazarov Umid**
KASBIY KOMPETENTLIK MOHIYATI VA RIVOJLANTIRISHNING OMILLARI...............138

**20. Kaxarova Nilufar**
SHAXAR MEGOPOLISIDAGI AYOLLAR MEHNAT MIGRATSIYASINING
MUAMMOLARI VA IMKONIYATLARI.....................................................................................145

**21. Хакимова Анора**
ОСОБЕННОСТИ РАБОТЫ С МОЛОДЫМИ СПЕЦИАЛИСТАМИ В ОРГАНИЗАЦИИ.....154

**22. A’zamxonov Saidabzalxon**
TALABALAR MUSTAQIL TA’LIM OLISHINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....163

**23. Ro‘zimatov Elbek**
VOLONTYORLIK HARAKATINING NAZARIY TAHLILI....................................................170

**24. Masharipov Baxtiyar**
SHAHAR INFRATUZILMASINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI................................177

**25. Muzaffarov San’atbek**
VOLONTYORLIK HARAKATI – EZGULIK VAKSINASI......................................................185

**26. Yo’ldashev Shoxrux**
YOSHLAR BUGUNGI KUN RIVOJLANISHI SHAROITIDA MADANIY-HUQUQIY
MUHITNING SUBYEKTI VA OBYEKTI SIFATIDA................................................................190

ISSN: 2181-9556
www.tadqiqot.uz
ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ
ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Muzaffarov San'atbek,**
O'zbekiston Milliy universiteti
"Sotsiologiya" kafedrasi
tayanch doktoranti (PhD)
e-mail: sanatbekmuzaffarov@gmail.com

# VOLONTYORLIK HARAKATI – EZGULIK VAKSINASI

**http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.10800166**

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada, butun dunyoda globallashib borayotgan ijtimoiy, ekologik, madaniy, dinlararo munosabatlar va boshqa muammolarga yechim sifatida volontyorlik harakati ko'rsatilgan. Volontyorlik bo'yicha turli ta'riflar o'rganilgan va yutuq hamda kamchiliklari haqida fikrlar berilgan. Yoshlar ongiga volontyorlik g'oyalarini singdirish, volontyorlik targ'ibotlarini shakllantirish, volontyorlik imtiyozlari va shu kabi qo'llab-quvvatlashlar orqali fuqarolik jamiyatida ayniqsa, davlat va nodavlat tashkilotlarda juda katta foyda keltirishi haqida maqolada aytib o'tilgan. Volontyorlik ilmiy va amaliy ko'rinishlarda namoyon bo'lishi, buning nazariy asoslarini turli tadqiqotlar orqali yaratilishi kerakligi va ijtimoiy davlat indikatori sifatida shakllanishiga alohida e'tibor berilgan.

**Kalit so'zlar:** volontyorlik, ijtimoiy institutlar, yoshlar, indikator, homiylik, beg'arazlik, ijtimoiy davlat, vaksina, tajriba, nodavlat notijorat tashkilotlar.

---

**Музаффаров Санъатбек,**
Национальный университет Узбекистана
базовый докторант (PhD)
кафедры "Социология"
э-почта: sanatbekmuzaffarov@gmail.com

# ВОЛОНТЕРСКОЕ ДВИЖЕНИЕ – ПРИВИВКА ДОБРОДЕЖЕСТВЕННОСТИ

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье волонтерское движение представлено как решение социальных, экологических, культурных, межрелигиозных отношений и других проблем, которые глобализуются во всем мире. Исследуются различные определения волонтерства и обсуждаются преимущества и недостатки. В статье отмечается, что внедрение идей волонтерства в сознание молодежи, формирование волонтерских кампаний, волонтерских льгот и подобных мер поддержки принесет большую пользу гражданскому обществу, особенно государственным и негосударственным организациям. Особое внимание уделено проявлению волонтерства в научном и практическом плане, необходимости создания его теоретических основ посредством различных исследований, его становлению как индикатора социального состояния.

**Ключевые слова:** волонтерство, социальные институты, молодежь, индикатор, меценатство, альтруизм, социальное государство, вакцина, опыт, неправительственные некоммерческие организации.

**Muzaffarov Sanatbek,**
National University of Uzbekistan
basic doctoral student (PhD)
Department of Sociology
e-mail: sanatbekmuzaffarov@gmail.com

## VOLUNTEER MOVEMENT IS A VACCINE OF VIRTUE

**ABSTRACT**

This article presents the volunteer movement as a solution to the social, environmental, cultural, interreligious relations and other problems that are becoming globalized throughout the world. Different definitions of volunteering are explored and the benefits and drawbacks are discussed. It is mentioned in the article that inculcating the ideas of volunteering in the minds of young people, forming volunteer campaigns, volunteer benefits and similar supports will bring great benefits in civil society, especially in state and non-state organizations. Particular attention is paid to the manifestation of volunteering in scientific and practical ways, the need to create its theoretical foundations through various studies, and its formation as an indicator of the social state.

**Key words:** Volunteering, social institutions, youth, indicator, patronage, altruism, social state, vaccine, experience, non-governmental non-profit organizations.

### KIRISH

Butun dunyoda globallashib borayotgan ijtimoiy, ekologik, madaniy, dinlararo munosabatlar va boshqa muammolar insonlarni tashvishga solmoqda. Bu esa, ijtimoiylashuv va shaxslararo munosabatlarga salbiy ta'sir o'tkazishi tabiiy. Shu kabi, muammolarga yechim sifatida volontyorlik (ko'ngillilik) faoliyati ko'rilmoqda va uning davlatlar miqyosida rivojlanishi hamda xalqaro maydonda kengroq quloch yozayotganligini ko'rish mumkin.

O'zbekistonda ham volontyorlik rivojlanayotgan bir bo'g'in sifatida shakllanmoqda. Asosiy maqsadi: ixtiyorlik, beg'arazlik va moddiylikni ko'zlamaslikdir. Bu esa, o'z-o'zidan fuqarolik jamiyati rivojlanishi, ijtimoiy adolat, turmish tarzini yaxshilanishi, yoshlarni qo'llab-quvvatlash, turli muammolarga fuqarolar ham yechim berishi, mas'uliyat va ijtimoiylashuv kabi jarayonlar uchun juda muhim. Buning natijasida ijtimoiy va ma'naviy tengsizlikni oldini olib, berilayotgan imkoniyatlardan ko'ra ko'proq foyda keltiradi. Ichki resurslarni, shu jumladan, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha volontyorlarni ijtimoiy xizmat va yordamlar ko'rsatishga jalb qilish hamda ularning mazkur sohadagi faoliyatini muvofiqlashtirish zamon talabi, shuningdek, bu faoliyat nechog'lik muhim ekanligi isbotlanmoqda.

Umuman olganda "Ehson" so'zi arabchadan tarjima qilinganda "chiroyli ish", ya'ni ko'ngildan chiqarib, beg'araz yordam berish",- degan ma'nolarni anglatadi. Bu yuqorida aytilgan "ixtiyoriylik" (volontyorlik) so'zi bilan hamohang ekanligiga e'tiboringizni qaratmoqchimiz. Demak, bunda XII asr oldin, buyuk allomamiz Xakim at-Termiziy bu harakatning asoschilaridan biri ekanligi ma'lum bo'ladi. Ba'zi tahlillardan bilish mumkinki, volontyorlik O'zbekiston tarixida uzoq o'tmishdan boshlab rivojlanib kelgan.

### METODOLOGIYA

Hozirgi kunda volontyorlik faoliyati bo'yicha qonunchilikda "O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrda O'RQ-406-son "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi, 2019-yil 2-dekabrdagi O'RQ-585-son "Volontyorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonunlar, 2022-yil 11-aprelda VMQ-169-son "Volontyorlik faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori,
2018-yil 17-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi A/RES/73/140 "Barqaror

rivojlanish uchun 2030 kun tartibi uchun Volontyorlik" rezolyutsiyasini qabul qildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2022-yil 19-yanvardagi PQ-92-son Qarori va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ushbu sohani rivojlantirishga xizmat qiladi.

Aslida, volontyorlik harakati insoniyat paydo bo'lgan davrdan boshlab shakllangan va rivojlangan bo'lsada hozirgi kunda uning ba'zi ko'rinishlari o'zgargan, nazariy va terminologik jihatlarda farq qilsada, insonlarga va bir biriga yordam berishdek tub mohiyati saqlab qolingan. Volontyorlik bo'yicha turli qarash va izohlar mavjud. Bunday qarashlar volontyorlik qanday faoliyat, unga qanday ta'rif berish kerak va kimlarni volontyor deyish mumkin?-degan savollar orqali namoyon bo'ladi. Ushbu savollarga turlicha davrlarda hamda ko'plab mintaqalarda har-xil fikrlar berilgan. Olimlar va tadqiqot institutlarning volontyorlik bo'yicha ikki xil qarashlari mavjud ekanligini ko'rsatadi. Birinchidan, volontyorlar jamiyat uchun foyda keltiradi; ikkinchidan, o'zi uchun imkoniyatlar va shaxsning o'ziga keladigan manfaatlarni ta'riflarda ko'rsatishgan.

**ASOSIY QISM**

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida berilgan ta'riflarga e'tibor berganimizda, jamiyat va fuqarolik jamiyati institutlari uchun keladigan foyda sifatida ta'riflangan. Volontyorlik – fuqarolar, ularning guruhlari yoki volontyorlik tashkilotlari tomonidan jismoniy yoki yuridik shaxslarning manfaatlarini ko'zlab ixtiyoriy faoliyatni amalga oshirish [1, 3]. O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida ilk bor "Homiylik to'g'risida" qonunda izoh berilgan va unda ham mana shunday ma'no kasb etadi. Ko'ngillilar – homiylik oluvchining yoxud homiylik tashkilotining manfaatlarini ko'zlab bepul ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish shaklidagi homiylikni amalga oshiruvchi jismoniy shaxslardir [2, 3].

Volontyorlik – bu jamoat ishlarini bajarish yoki notijorat tashkilotni qo'llab-quvvatlash uchun bepul mehnatga hissa qo'shish harakati. Bu kattaroq maqsadga vaqt va kuch sarflash tamoyilidir. Volontyorlar moliyaviy mukofot olishdan ko'ra, ijtimoiy mas'uliyat sifatida jamiyatdagilarning hayotini o'zgartirishga yordam beradi [3].

Volontyorlik tadqiqotlari instituti birinchi marta 1997-yilda Sharqiy London universiteti bilan hamkorlikda Angilyada tashkil etilgan. Angilyada Volontyorlik birlashmasi va Milliy Volontyorlik Tashkilotlar Kengashi (NCVO) qo'shildi. Bu Kengash 2013-yilda Volontyorlik tadqiqotlari institutining tadqiqot funksiyasining bir qismiga aylandi. Volontyorlik tadqiqotlari instituti bergan ta'rifida "Birovga (shaxslarga yoki guruhlarga) foyda keltiruvchi biror narsa qilish, to'lovsiz vaqt sarflashni o'z ichiga olgan har qanday faoliyat yaqin qarindoshlaridan tashqari yoki qo'shimcha ravishda yoki atrof-muhitga foyda keltirish maqsadida" [4; 9] deb yuritilganligini ko'rish mumkin.

Bizning fikrimizcha, quyidagi ta'rifni berish mumkin. Demak, volontyorlik – ixtiyoriy, beg'arazlik va moddiylikni ko'zlamaslik maqsadida ezgulik istovchilar faoliyatidir. Volontyorlar nogironligi bor shaxslar, yolg'iz keksalarga, o'zgalar parvarishiga muhtoj insonlar, jonzotlar, tabiatga yordam qo'lini cho'zuvchilardir.

Ta'riflardan kelib chiqib bu faoliyatning asl mohiyatini bilib olsa bo'ladi. Birinchi navbatda volontyorlar: xayriya tashkilotlarida, shu jumladan, nodavlat notijorat tashkilotlari, korporativ biznes dasturlari, nafaqaxo'rlar uchun dasturlarda, diniy tashkilotlarda, milliy xarakterdagi volontyorlik tashkilotlarda faol ishtirok etishlari va ishlashlari mumkin. Bu holat chet eldagi aksariyat maktablarda juda ko'plab uchraydi.

AQSHning Kanzas shtatida volontyorlar harakati juda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Shaharda ixtiyoriy xizmatlar 466 ming nafar katta yoshdagi odamlarga to'g'ri keladi va bu aholining 32,7% ko'ngilli deganidir. Qizig'i shundaki, Kansas shtatida volontyorlarning 24,6% keksaygan odamlar [5, 112]. Nafaqadagi odamlar uyda yoki biror joyda o'tirishni xohlashmaydi, ular ko'proq yaxshilik qilish maqsadida, ana shunday harakatlarda ishtirok etadilar. Nodavlat tashkilotlarning rahbarlari esa volontyorlar harakatlarida keksalarning muhim rollari borligini ta'kidlab o'tadilar.

Yoshlarning ixtiyoriy faoliyatida ishtirok etish holati (16-24 yoshdagilar) 30% ni tashkil etadi. Shaharda 8000 ortiq nodavlat notijorat tashkilot mavjud bo'lib, ulardan faqat 3000 nafarida xodimlar maosh olib ishlaydi qolganlari esa, volontyor ishchilar. Misol uchun shahardagi birgina milliy nodavlat tashkiloti "United Way" jamg'armasi (USP)ni olaylik, u AQSHdagi eng qadimgi nodavlat

tashkilotlardan biri bo'lib, kam ta'minlanganlarga, nizoli oilalarga, nogironligi mavjud bo'lganlarga va boshqalarga yordam ko'rsatadi. Tashkilot 30 dan ortiq dasturlar doirasida turli xayriya ishlarini tashkillashtirib boradi va bir yil davomida 35-40 million dollardan ko'proq pul to'planadi va ushbu maqsadlar yo'lida foydalanadilar [6; 83].

Volontyorlar tomonidan pansionat uylaridagilarga psixologik yordam, undan tashqari yolg'iz keksalar uylariga tashrif buyurib, uy sharoitini yaxshilashga, zarur bo'lsa, yuridik shu bilan birga, hattoki, uylarni ta'mirlashda yordam ko'rsatadilar. Ko'plab davlatlarda ko'ngillilar maxsus o'quv kurslarida o'qitiladi, har oyda bir yoki bir necha marta ko'ngillilar uchun maxsus treninglar o'tkaziladi. Ta'lim dasturlari doirasida o'ta og'ir kasallangan bemorlar bilan ishlash, bemorlarni o'zini o'zi parvarish qilish usullarini o'rgatish qoidalari haqida ma'lumot beriladi. Eng muhimi, volontyorlarni rag'batlantirib boriladi, faollarga turli imtiyozlar va esdalik sovg'alar beriladi.

Yurtimizda ham yosh volontyorlarni son va sifat jihatdan salmog'ini oshirish maqsadga muvofiq. Shu orqali, keksalarga ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik yordam ko'rsatishni tashkil etish juda yaxshi natijalarni berishi mumkin. Ular qarovsiz qolgan keksalarga issiq ovqat yetkazib berish, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishda, kasallikka chalingan keksalarga g'amxo'rlik qilishda, oila a'zolariga yordam beradi, keksalarning huquqlarini himoya qilish kabi ishlarni bajaradilar. Bu amaliyot o'z navbatida har tomonlama yoshlarni amaliy va ijtimoiy jihatdan salohiyatli kadr bo'lishlariga yordam beradi.

Bu o'rinda aytish joizki, nodavlat notijorat tashkilotlarning o'rni va faoliyati juda muhim hisoblanadi. Aslida uning eng muhim jihati nodavlat tashkilotlarning faolligini oshirishda va ijtimoiy muammolarni bartaraf etishga qaratilganligi. Shu orqali, faol ijtimoiylashuvga ham o'z ta'sirini o'tkazadi hamda haqiqiy ezgulik vaksinasi ekanligini bildiradi. Masalan, qo'shnisi yolg'iz keksa bo'lgan oilaga e'tibor qaratsak, bu yolg'iz keksa insonga davlat tomonidan yetarli darajada e'tibor berilganda va qo'llab-quvvatlanganda, uning atrofidagilarda davlat ularga juda yaxshi qaraydi degan fikr paydo bo'ladi. Yolg'iz keksaga qaramay qo'yishadi, hatto ba'zi farzandlar ota-onalarni tashlab ketishga harakat qilishlari kuzatiladi.

Volontyorlar uchun birinchi navbatda insonparvarlik tamoyiliga rioya qilishi muhim. Ular turli odamlarga yordam qilishadi, oziq-ovqat, kiyim-kechak tarqatish kabi ishlarni amalga oshiradilar. Bu esa, yaxshilik qilish hisoblanib, barchaga birdek munosabatda bo'lishni taqozo etadi. Volontyor insonparvarlik qilish orqali, jamiyatda o'z o'rnini tezroq topadilar va ezgulik bosh g'oyalariga aylanadi.

Xususan, aholining kam daromadli qismiga gumanitar yordam ko'rsatishga qaratilgan bunday harakatlar vatanparvarlik va fidoiylikni ham taqozo etadi. Asta sekinlik bilan bu g'oyalar ham ustuvorlik qilib boradi.

Individual amaliyotni tashkil etish ham volontyorlikka xosdir. Birgina huquqshunos talaba yolg'iz keksa yoki nogironligi bo'lga shaxsga yordam bersa, uning huquqlarini himoya qilsa, u haqiqiy amaliyot maktabini o'tagan bo'ladi. Bu rejalashtirilgan individual amaliyotidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi volontyorlik harakatini juda ko'plab uchratish mumkin. Masalan, qon berish, bemorlar holidan xabar olish kabi xayriya ishlarida faol ishtirok etadilar. Deyarli aholining barcha qatlami tibbiy xizmatlardan foydalanadi, bunda xohlaymizmi yo'qmi, odamlarning pul topish darajasiga bog'liq. Kam maoshga ega bo'lganlarning ko'pchiligi, shuningdek, kichik biznes vakillari ham tibbiy xizmatlardan foydalanishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. To'satdan yaqin insoni og'ir betob bo'lib qolsa, yoki o'zida kasallik yuz berganda boshqa shaxslardan qarz bo'lib qolish ehtimoli mavjud. Bunda sog'liqni saqlash sohasidagi volontyorlikni tashkil etishni va turli xayriyalarni tashkil etilganda o'z yordamlarini beradilar [7, 276].

O'zbekistonda "Volunteers.uz" loyihasi doirasida birlashgan "Oltin qanot volontyorlari" va Volontyorlar akademiyasi faoliyat olib bormoqda. Hozirda O'zbekistonda eng ko'p volontyorlariga ega bo'lgan jamoa ham aynan ana shulardir.

"Oltin qanot" volontyorlari ilk faoliyatini 2016-yil 17-oktyabr asos solingan. Ilk loyihasi, "Muruvvat" nogiron bolalar uyida tarbiyalanayotgan bolalar sochini olish va sport o'yinlar tashkil etishdan boshlangan. Ilk bor, "Ijtimoiy ko'mak" yoshlar jamoasi nomi ostida o'z faoliyatini olib

borgan bo‘lsa, keyinchalik esa, “Biz, bo‘lmasak, kim?” ko‘ngilli yoshlar jamoasi va “Oltin qanot” yosh volontyorlar guruhi kabi nomlar bilan ham atalgan.

**XULOSA**

2020-yil 24-sentyabrda O‘zbekistonda ilk bor volontyorlikka tayyorlash bo‘yicha Volontyorlar akademiyasi nodavlat ta’lim muassasasi tashkil etildi. Volontyorlarni bepul o‘qitish va volontyorlar orqali bepul ta’lim loyihalarini ham tashkil etib kelmoqda. Bilimi va tajribasi, xalqaro grantlar va loyihalar yutishga ko‘maklashish, volontyorlik amaliyoti, liderlik darslari, motivatsion treninglar va maqolalar chop etish va Respublika forumlarini tashkil etib kelmoqda. Jumladan, Motivatorlar maktabi, IYOK, Yosh innovatorlar forumi, Maqsaddan muvaffaqiyatgacha, Zakovat maktabi, yetakchi liderlar onlayn forumi va ideas.uz loyihalari shular jumlasidandir [8]. O‘zbekistonda volontyorlikni rivojlantirish uchun xizmat qilayotgan yana 200 dan ortiq mana shunday jamoalar faoliyat olib bormoqda.

Demak, kelajakda volontyorlarning yaxshi kasb-hunarga ega bo‘lishi, yaxshi mutaxassis bo‘lishiga ko‘maklashib qolmay, yaxshi ish topishiga juda katta imtiyozlar beriladi. Volontyorlik faoliyati bilan ishlaganlar tajriba, amaliyot, bilim va yangi ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. Bu esa, haqiqiy mustaqil amaliyot maydoni desa mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu esa ijtimoiy davlat qurish uchun ham muhim drayveri bo’lib hizmat qilishi mumkin.

**Adabiyotlar/ Литература/ References:**


1. O‘zbekiston Respublikasining “Volontyorlik faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-585-son qonuni 2019-yil 2-dekabr, 3-moddasi, Toshkent.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Homiylik to‘g‘risida”gi O‘RQ-96-son qonuni 2007-yil 2-may, 3-moddasi, Toshkent.
3. Bloomerang – notijorat tashkilotlarning rivojlanishiga yordam beradigan donorlarni boshqarish dasturi veb sayti: https://bloomerang.co/blog/what-is-volunteerism-a-guide-to-the-history-benefits/
4. The Institute for Volunteering Research (IVR) “A rose by any other name …’ Revisiting the question: ’what exactly is volunteering?” Working paper series: Paper one Angela Ellis Paine, Matthew Hill and Colin Rochester 2010. – P.9.
5. Internattional Labour Organization “Manual on the Measurement of Volunteer Work” Final approved pre-publication version March 2011. – B.112.
6. Muzaffarov S. “Ijtimoiy hayotga yoshlar tashabbusi yohud Ijtimoiy start-uplarni boshqarish” uslubiy qo‘llanmasi, 2022 yil. – B. 83.
7. Muzaffarov S. “Volontyorlik harakati -ezgulik yo‘li” “XXI-asrda ilm-fan taraqqiyotining rivojlanish istiqbollari va ularda innovatsiyalarning tutgan o‘rni” mavzusidagi Respublika ilmiy 2-onlayn konferensiyasi materiallari 2019-yil 19-mart. – B.276.
8. “Oltin qanot” volontorlar jamoasining veb sayti: https: // volunteers.uz /history.html.

Tadqiqot uz

ISSN 2181-9556

Doi Journal 10.26739/2181-9556

# ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

# ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

# JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

SPECIAL ISSUE-1

MAQOLADA KELTIRILGAN DALILLARNING TO'G'RILIGI UCHUN MUALLIF MAS'ULDIR | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

**Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz**
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz**
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000